

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./CDSB8855>  
UDC: 81'33:34(045)(575.1)

## O'ZBEKISTONDA YURIDIK TERMINLAR TEZAURUSINI YARATISH – DOLZARB VAZIFA

**Ko'chimov Shuhrat Norqizilovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b.,  
filologiya fanlari doktori  
ORCID: 0000-0002-9718-1041  
e-mail: sh.kuchimov@tsul.uz

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yurislingvistika, tezaurus, yuridik til, yuridik terminologiya, qonun tili, qonunchilik uslubi, yuridik tarjimashunoslik masalalari xususida fikr yuritiladi. O'zbekistonda yuridik tezaurus platformasini yaratish dolzarb vazifa ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, mustaqillik yillarda yuridil til va yuridik terminologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilinadi, bu sohadagi muammolar aniqlanadi. Yuridik terminlarning turli-tuman shakllarda qo'llanishi yuridik amaliyotda salbiy holatlarga olib kelmoqda, chunki bunday yuridik terminlarda semantik jihatdan o'ziga xos ma'nno nozikliklari mavjud bo'lib, ular yuridik matnda berilganda, bu ma'nno nozikliklari yana ham kuchayib, turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Bu esa normativ-huquqiy hujjalarning mutaxassislar va fuqarolar tomonidan turlicha tushunilishi, sharhanishiga sabab bo'lmoqda. Amaliyotda ijro jarayoniga ham ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa yuridik tilda mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat hisoblanadi. Chunki yuridik hujjalalar o'ta aniq va ravon ifodalanishi kerak. Ularni o'qigan shaxs turli ma'nolarni tushunmasdan, faqat va faqat qonunshunos nazarda tutgan birgina ma'noni tushunishi lozim. O'zbekistonda davlat tilida qonun ijodkorligi va qonun tarjimashunosligi masalalari, bu sohadagi xorijiy va milliy tajriba, qonun tarjimashunosligidagi muammolar tahlil qilingan va ularni hal etish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yurislingvistika, tezaurus, yuridik til, yuridik terminologiya, qonun tili, qonunchilik uslubi, yuridik tarjimashunoslik, termin, lug'at, tezaurus lug'at.

### СОЗДАНИЕ ТЕЗАУРУСА ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКИСТАНЕ – АКТУАЛЬНАЯ ЗАДАЧА!

**Кучимов Шухрат Норкизилович,**  
доктор филологических наук,  
и. о. профессора Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы юридической лингвистики, тезауруса, юридического языка, юридической терминологии, юридического языка, юридического стиля и юридического переводоведения. Подчеркивается, что создание платформы правового тезауруса в Узбекистане является актуальной задачей. Также анализируются научно-исследовательские работы, проведенные в области юридического языка и юридической терминологии в годы независимости, выявляются проблемы в данной сфере. Использование юридических терминов в разных формах приводит к негативным ситуациям в юридической практике, поскольку такие юридические термины имеют семантически специфические смысловые тонкости, а когда они приведены в юридическом тексте, то эти смысловые

нюансы становятся еще более значительны. Это вызывает разное понимание и толкование нормативных правовых документов специалистами и гражданами, негативно сказывается на процессе реализации на практике, что абсолютно неприемлемо в юридическом аспекте. Юридические документы должны быть выражены очень ясно и четко, а человек, который их читает, должен понимать только то значение, подразумеваемое юристом, не смешивая с другими понятиями. Были проанализированы вопросы правотворчества на государственном языке и правоведения в Узбекистане, зарубежный и отечественный опыт в этой сфере, проблемы правоведения и даны научные предложения и рекомендации по их решению.

**Ключевые слова:** юридическая лингвистика, тезаурус, юридический язык, юридическая терминология, юридический язык, юридический стиль, юридическое переводоведение, термин, словарь, тезаурус словарь.

## CREATION OF THE THESAURUS OF LEGAL TERMS IN UZBEKISTAN – AN URGENT TASK!

**Kuchimov Shukhrat Norkizilovich,**  
Acting Professor at Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philological Sciences

**Abstract.** This article deals with the issues of legal linguistics, thesaurus, legal language, legal terminology, language of laws, legal style and legal translation. It is emphasized that the creation of a legal thesaurus platform in Uzbekistan is an urgent task. The research works carried out in the field of legal language and legal terminology during the years of independence is also analyzed and the problems in this sphere are identified. The use of legal terms in different forms leads to negative situations in legal practice, because such legal terms have semantically specific semantic subtleties, and when they are given in a legal text, these semantic subtleties become even more significant. This causes different understandings and interpretations of normative legal documents by specialists and citizens and negatively affects the process of implementation in practice, which is absolutely unacceptable in the legal aspect. Legal documents should be expressed very clearly and distinctly, and the person who reads them should understand only the meaning implied by the lawyer, not mixed with other concepts. The issues of law-making in the state language and jurisprudence in Uzbekistan, foreign and domestic experience in this sphere, and problems of jurisprudence have been analyzed and scientific proposals and recommendations for their solution have been given.

**Keywords:** legal linguistics, thesaurus, legal language, legal terminology, language of laws, legal style, legal translation, term, dictionary, thesaurus dictionary.

### Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot davrining yangi renessans davriga qadam qo'ydi. O'zbekiston xalqi o'z milliy rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilib, inson huquqlari va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat qurmoqda.

Bu esa, birinchi navbatda, huquq va huquqiy fanlarning rivojini taqozo etadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. Mirziyoyevning parlament va O'zbekiston xalqiga 2023-yil uchun murojaatnomasida ta'kidlangan "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan g'oyani huquqiy amalga oshirish, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, "qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat" prinsipini yo'lga qo'yish, normativ-huquqiy hujjalalarini sifatli ishlab chiqish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda milliy yuridik til va

yuridik terminologiya o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

### Material va metodlar

Binobarin, yuridik terminologiya huquqshunoslik fanini o'rganish, huquqni tushunish va uni amaliyotda qo'llash uchun "kalit" hisoblanadi. Bu "kalit" qanchalik qulay va samarali bo'lsa, huquq shunchalik rivojlanaadi. Yoki aksincha bo'lsa, huquqiy amaliyotda ma'lum bir muammolarni yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqqan holda, mustaqillik yillarida huquqshunos va tilshunos olimlar tomonidan o'zbek yuridik tili va terminologiyasi bo'yicha ko'pgina ishlar amalgalashirildi: 10 dan ortiq dissertatsiyalar himoya qilindi [1–11], 30 ga yaqin o'quv qo'llanma va monografiyalar nashr etildi [12–19]. Huquq sohasida ko'pgina izohli va tarjima lug'atlari (1993-, 1999-, 2002-, 2003-, 2009-, 2011-, 2014-, 2020-yillar) yaratildi [20–26], O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi nashr etildi, Adliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Milliy huquqiy internet portalı ([huquqiportal.uz](http://huquqiportal.uz)), Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari va O'RFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti xodimlari tomonidan <http://yurislingvistika.ukit.me/> veb-sahifasi ishga tushirildi.

### Tadqiqot natijalari

Shunga qaramay, bugungi kunda amaliyotda yuridik terminlarni tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish) sohasida ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Ularni quyidagi 6 guruhga umumlashtirish mumkin:

1. Yuridik terminlarda shakl va mazmunning o'zaro nomutanosibligi muammosi.
2. Bir huquqiy tushunchaning turli nomlar bilan yuritilishi muammosi (yuridik terminlarda sinonimiya muammosi).
3. Bir yuridik terminning xilma-xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalashi muammosi (yuridik terminlarda omonimiya va polisemiya muammosi).
4. Mavjud yuridik terminlarni noto'g'ri qo'llash holatlari.

5. Yuridik terminlarning o'rniga eskirgan yoki shevaga xos so'zlarni ishlatish holatlari.

Yuridik terminlarda shakl va mazmunning o'zaro nomutanosibligi muammosi o'zbek yuridik tilida juda ham keng tarqalgan. Jumladan, rus tilidagi *гражданский истец*, *гражданский иск*, *гражданский ответчик* birikmalari o'zbek tilida istiqlolga qadar *gra-jdanlik da'vogari*, *gra-jdanlik da'vosi*, *gra-jdanlik javobgari* tarzida ishlatib kelindi. Keyinchalik ularni o'zbekchalashtirish maqsadida *fuqarolik da'vogari*, *fuqarolik da'vosi*, *fuqarolik javobgari* tarzida o'zgartirildi.

O'zbekchalashtirilgan bu birikmalar ham shu huquqiy tushunchaning mazmunini to'la oqlamas edi. Chunki *гражданский истец* deyilganda, da'vo qilayotgan shaxs fuqaro sifatida o'z huquqini talab qilishi nazarda tutladi. *Fuqarolik da'vogari* birikmasi esa fuqaro bo'lish uchun da'vogarlik qilayotgan shaxs (olimlik da'vogari kabi) tushuniladi. Shuning uchun Jinoyat-protsessual kodeksida *fuqaroviylar* da'vo, *fuqaroviylar* da'vogar, *fuqaroviylar* javobgar tarzida ishlatildi.

Bir huquqiy tushuncha ayrim normativ-huquqiy va boshqa yuridik hujjalarda turli nomlar bilan yuritilmoqda. Fikrimizning dalili sifatida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz: исполнительная власть – *ijro hokimiysi*, *ijro etish hokimiysi*, *ijro etuvchi hokimiyat*; показание – *ko'rsatuv*, *ko'rsatma*, *ko'rgazma*, *ko'rgazuv*, *guvohlik*, *so'roq berish*; умышленно – *bilib turib*, *bilgan holda*, *ataylab*, *qasddan*; уголовное дело – *jinoyat ishi*, *jinoiy ish*; исковое заявление – *da'vo arizasi*, *da'vo ariza*, *da'vo-ariza*; административное принуждение – *fuqarolik majburlov*, *fuqarolik majburlash*, *fuqarolik majbur etish* kabilari.

Yuridik terminlarning bunday turli-tuman shakllarda qo'llanishi yuridik amaliyotda salbiy holatlarga olib kelmoqda, chunki bunday yuridik terminlarda semantik jihatdan o'ziga xos ma'no nozikliklari mavjud bo'lib, ular yuridik matnda berilganda, bu ma'no nozikliklari yana ham kuchayib, turlicha ma'nolar ni ifodalaydi. Bu esa normativ-huquqiy

hujjatlarning mutaxassislar va fuqarolar tomonidan turlicha tushunilishi, sharhanishiga sabab bo'lmoqda. Amaliyotda ijro jarayoniga ham ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu esa yuridik tilda mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat hisoblanadi. Chunki yuridik hujjatlar o'ta aniq va ravon ifodalanishi kerak. Ularni o'qigan shaxs turli ma'nolarni tushunmasdan, faqat va faqat qonunshunos nazarda tutgan birgina ma'noni tushunishi lozim. Qonunni hamma o'zicha tushunadigan bo'lsa, u mamlakatda huquqiy tartibotni ta'minlamasdan, aksincha, boshboshoqlikni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda amaliyotda bir yuridik terminning xilma-xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalashi muammosi (*yuridik terminlarda omonimiya va polisemiya muammosi*) mavjud. Hozirgi paytda ayrim yuridik terminlarning leksik ma'nosiga e'tibor berilsa, ular o'zlarining asosiy ma'nosini bilan birga shu tushunchaga mazmun jihatdan yaqin bo'lgan ma'nolarni ham ifoda etadi. Masalan, rus tilidagi *личный досмотр* termini ikki xil shaklda, ya'ni *shaxsni ko'rikdan o'tkazish, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish* shaklida ishlataladi. Bu, birinchidan, huquqiy normalarning xilma-xil shakllari, ya'ni sinnonimiyasining vujudga kelishiga sabab bo'lsa, ikkinchidan, *shaxsiy ko'rikdan o'tkazish* deb berilishi xato hisoblanadi. Chunki rus tilidagi *личный досмотр* terminini *shaxsni ko'rikdan o'tkazish* birikmasi to'la ifodalaydi, *shaxsiy ko'rikdan o'tkazish* esa bu huquqiy tushunchaning mazmunini ochib bera olmaydi. Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish termini quyidagi ikki ma'noni ifodalaydi:

*1) bir mas'ul shaxs tomonidan bir yoki bir necha kishining ko'rikdan o'tkazilishi; 2) bir nechta mas'ul shaxs tomonidan faqat bir kishining ko'rikdan o'tkazilishi.*

Mavjud yuridik terminlarni noto'g'ri qo'llash holatlari uchramoqda. Hozirda ayrim qonunlarimizda *qonunchilik* va *qonuniylik* atamalarining ma'nolari farqlanmagan holat-

da ishlatalmoqda. Xo'jalik-protsessual kodeksining 3-moddasiga e'tibor bering:

*Xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:*

*1) ... ;*

*2) iqtisodiyot sohasida qonunchilikni mustahkamlash va huquqbazarliklarning oldini olishga ko'maklashish.*

O'z-o'zidan ko'rindan, xo'jalik sudida sud ishlarini yuritish vazifalari qonunchilikni emas, balki qonuniylikni mustahkamlashdir.

Mazkur kodeksning rus tilidagi variantida bu so'z *qonuniylik* (законность) tarzida ishlatalib, to'g'ri qo'llangan:

*2) содействие укреплению законности и предупреждению правонарушений в экономической сфере.*

Bundan tashqari, ayrim yuridik terminlarning noto'g'ri shakllarda berilishi fuqarolar huquqiy ongi va madaniyati o'sishi-ga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fikrimizning dalili sifatida hozirda ijtimoiy hayotimizda uchrab turadigan bir misolni keltirib o'tamiz. Jumladan, huquqshunos bo'limgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasiga fuqaro bo'lib kirish, uning shartlari va qonun-qoidalari bilan tanishmoqchi bo'lsa, hech ikkilanmay, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi-ga murojaat qiladi. Biroq ular o'z savollariiga javobni Fuqarolik kodeksidan topa olmaydi. Chunki O'zbekiston fuqaroligini olish shartlari, uning to'xtatilishi tartib va qoidalari Fuqarolik kodeksida emas, "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunda aks etgan. *Fuqarolik kodeksi* termini qonunning mazmun va mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. U rus tilidagi *grajdanskiy kodeks* terminidan mazmunan emas, so'zmaso'z tarjima qilingan (aslida, *fuqaroviy kodeks* deb ishlatalishi zarur).

Yuridik matnda yuridik terminlarning o'rniga eskirgan va shevaga xos so'zlarni ishlatalish holatlari uchramoqda. Qonun matnlaridagi huquqiy normalarning fuqarolar tomonidan tez va aniq tushunilishini ta'minlash maqsadida, ta'kidlanganidek, eskirgan

va shevaga xos so'zlar ishlatilmaydi. Bunday so'zlar huquqiy normalarni tushunishni qiyinlashtiradi. Lekin qonun matnlarida ayrim holatlarda eskirgan va shevaga xos so'zlar ishlatalayotganining guvohi bo'lamiz. Masa-lan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 72-moddasida shunday deyiladi: "...*sifathi yerosti suvlari hosil bo'ladigan tegrada yerosti suvlaring ifloslanishi...*"

Matnda *tegra* so'zi noo'rin qo'llangan. *Tegra* so'zi, odatda, *tevarak*, *atrof*, ayrim o'rnlarda *maydon* ma'nosida ishlatilib, u, asosan, badiiy nutqda, ayniqsa, she'riyatda ishlataladi. Lekin bu so'zning qonun matnida berilishi maqsadga muvofiq emas. Chunki, birinchidan, *tegra* so'zi rasmiy nutqqa xos emas, ikkinchidan, *tegra* so'zini ko'pchilik tushunmaydi. Bu esa huquqiy normani tushunishni qiyinlashtiradi. Bu so'zning o'rniga *maydon* so'zi ishlatilib, yuqoridagi huquqiy norma quyidagicha ifodalansa, fuqarolar tomonidan osonroq tushuniladi: "...*sifathi yerosti suvlari hosil bo'ladigan maydonda yerosti suvlaring ifloslanishi...*"

Qonun matnlarida so'z ishlatishda jiddiy nuqsonlar ham uchramoqda. Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 290-moddasida shunday deyiladi:

*"Huquqbuzarlarni ushslash, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish yoki ashyolarni ko'zdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbazarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo'lmish ashyo va hujjatlar ushbu kodeksning 287- va 289-moddalarda nazarda tutilgan organlarning mansabдор shaxslari tomonidan olib qo'yiladi".*

Matndagi "*huquqbazarlikni sodir etish quroli*" jumlasidagi *quroli* so'zi o'z o'rnida ishlatilmagan. Chunki "*qurol*" deyilganda, miltiq, avtomat, to'pponcha kabilar tushuniladi. Agar shaxs *qurol* (miltiq, avtomat, to'pponcha) bilan huquqbazarlik sodir etsa, ma'muriy emas, jinoiy javobgarlikka tortiladi. "*Huquqbazarlikni sodir etish quroli*" deb ishlatish mantiqqa zid. Shuning uchun "*huquqbazarlikni sodir etish vositasi*" deb ishlatalishi maqsadga muvofiq.

Normativ-huquqiy hujjat matniga qo'yiladigan eng muhim talab – qonun tilining eng yuqori (maksimal) darajada anqlikka intilishidir. Lekin bu jihatdan yuridik til o'ziga xos xususiyatga ega.

Badiiy va publitsistik (roman, hikoya, she'r kabilarda) uslublarda matn o'ta aniq tuzilmasa ham, uni qayta-qayta o'qish jarayonida muallif aytmoqchi bo'lgan ma'noni uqib olish mumkin. Bu jamiyatda unchalik ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Lekin huquqiy normalarni ifoda etishda bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki yuridik matn aniq tuzilmasa, har kim qonun matnini o'zicha tushunadi va o'zi tushunganicha ish tutadi. Qonun tilida, o'rni kelganda, hatto arzimagan bitta vergul insonning hayot-mamotini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan qonun tiliga qo'yiladigan eng muhim va asosiy talab huquqiy normalarning o'ta aniq va ravshan tuzilishidir.

So'nggi yillarda qonunlarimiz matnida anqlikni ta'minlash maqsadida Oliy Majlis tomonidan ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan to shu kunga qadar Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyati tufayli 3000 dan ziyod qonunlar qabul qilindi, jamiyatning asosiy huquqiy poydevori yaratildi. Qabul qilingan qonunlarning salmog'i nafaqat ularning soni va yuridik kuchi, balki bu qonun hujjatlarining sifati, jahon standartlari darajasiga javob berishi, xususan, o'zining sodda ifoda usuli va unga amal qiluvchilar manfaatidan kelib chiqqan holda anqlik darajasi bilan ham o'lchanadi. Agar qonun hujjatlari ni shu nuqtayi nazardan kuzatsangiz, ayrim qonun hujjatlarida huquqiy normalarni ifodalashda fikrlarning aniq va ravshanligi yetishmayotganining guvohi bo'lasiz. Fikrimizning dalili sifatida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdan namunalar keltirib o'tamiz.

*18-modda. Zaruriy mudofaa*

*Ushbu kodeksda yoki ma'muriy huquqbazarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilovchi boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan,*

lekin zaruriy mudofaa holatida, ya'ni shaxsning yoki mudofaanuvchining yoxud boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan shunday tajovuz qilayotgan shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilish vaqtida, basharti bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketilishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanmaydi.

#### 19-modda. Oxirgi zarurat

Ushbu kodeksda yoki boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan, huquqlarga hamda qonun bilan himoya etiladigan manfaatlarga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsga yoki mazkur shaxsning yoxud boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid etayotgan xavfni, basharti bu xavfni boshqa choralar bilan bartaraf etib bo'limasa hamda yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, bartaraf etish uchun sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblanmaydi.

Bu moddalarni tushunish birmuncha qiyin. Yuristlar uchun bu qiyin emasdir, lekin oddiy fuqarolar uchun uni tushunib, ijtimoiy hayotda qo'llash bir qancha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Qolaversa, qonun faqat huquqshunoslar uchun yaratilmaydi. U shu jamiyatdagi barcha fuqarolarning ma'lum bir tartib-qoidalarga qat'iy amal qilib yashashi uchun ishlab chiqiladi. Agar oddiy fuqarolar bu qonunni tushunmasalar, qanday qilib qonunga amal qiladilar. Endi shu moddalarning rus tilidagi shakliga e'tibor bering.

#### Статья 18. Необходимая оборона

Не являются административным правонарушением действия, предусмотренные настоящим Кодексом или другими нормативными актами, устанавливающими административную ответственность, но совершенные в состоянии необходимой обороны, то есть при защите личности или прав обороняющегося либо другого лица, интересов общества и госу-

дарства от противоправного посягательства путем причинения посягающему вреда, если при этом не было допущено превышения пределов необходимой обороны.

#### Статья 19. Крайняя необходимость

Не являются административным правонарушением действия, предусмотренные настоящим Кодексом или другими нормативными актами, причинившие вред правам и охраняемым законом интересам, совершенные в состоянии крайней необходимости, то есть для устранения опасности, угрожавшей личности или правам данного лица либо других граждан, интересам общества или государства, если опасность при сложившихся обстоятельствах не могла быть устранена другими средствами и если причиненный вред является менее значительным, чем предотвращенный.

Ko'rinish turibdiki, bu moddalarning o'zbek tilidagi shakliga nisbatan rus tilidagi shakli birmuncha aniq va ravon tayyorlangan, fikrlar sodda ifodalangan. Bu esa uni qo'lllovchilar uchun yengillik beradi. O'z navbatida, shu tilda fikrlovchi va so'zlashuvchilarning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati ham yuqori bo'lishi uchun muhim omil bo'ladi.

Xo'sh, nima uchun shunday? Bizning ona tilimiz – o'zbek tili bunday murakkab huquqiy normalarni o'ta aniq va ravon jaranglatishga qodir emasmi?! Yo'q, gap bunda emas. O'zbek tili har qanday murakkab huquqiy normani o'ta sodda va aniq, jarang-dor ifodalashga qodir. Gap shundaki, hozir ham ko'pgina qonunlarimiz dastlab rus tilida tayyorlanib, so'ngra o'zbek tiliga o'girilmoqda.

Ta'kidlanganidek, sobiq Ittifoq davrida qonunlarni tarjima qilish jarayonida shunday prinsip mavjud ediki, agar rus tilidagi bir moddada qancha gap bo'lsa, o'zbek tilida ham shuncha gap bilan ifodalash shart bo'lgan. Masalan, biror mazmun jihatidan anche murakkab bo'lgan huquqiy norma rus tilida

bitta gap orqali ifodalangan bo'lsa, o'zbek tilida ham bitta gap bilan ifodalanishi kerak edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, o'z milliy davlatchiligin shakllantirayotgan bugungi kunda ham qonunlarni tarjima qilishda sobiq Ittifoq tomonidan belgilab berilgan prinsiplarga amal qilinmoqda. Yuqoridagi modda ham shu prinsipga asoslangan holda tarjima qilingan. Agar e'tibor bersangiz, rus tilidagi ikkala muddanining har biri bitta gapdan tashkil topgan. Tarjimon o'zbek tilida ham bitta gap orqali berishga harakat qilgan. O'zbek tilidagi matn ko'proq rus tilining grammatik qonun-qoidalari asosida berilgan.

Aslida, bunday murakkab huquqiy normalarni ijodiy yondashib, o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalardan kelib chiqqan holda, bir necha gaplarga bo'lib, quyidagicha soddagina ifodalash mumkin edi:

#### 18-modda. Zaruriy mudofaa

*Ushbu kodeksda yoki ma'muriy huquqbazarlik uchun javobgarlik belgilovchi boshqa normativ hujjalarda nazarda tutilgan, lekin zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbazarlik hisoblanmaydi.*

*Zaruriy mudofaa deganda, shaxs o'zining yoki mudofaalanuvchi boshqa shaxsning huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlарини g'ayrihuquqiy tajovuzlardan tajovuz qiluvchi shaxsga zarar yetkazish yo'li bilan himoya qilishi tushuniladi. Bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketmaslik lozim.*

#### 19-modda. Oxirgi zarurat

*Ushbu kodeksda yoki boshqa normativ hujjalarda nazarda tutilgan, huquq va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarga zarar yetkazgan, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakatlar ma'muriy huquqbazarlik hisoblanmaydi.*

*Oxirgi zarurat deganda, shaxs o'zining yoki boshqa shaxsning huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlarga tahdid solayotgan xavfni bartaraft etish uchun sodir etgan harakatlari tushuniladi. Bunda xavfni boshqa choralar bilan bartaraft etib bo'lmasligi hamda yetka-*

*zilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lishi shart.*

O'zbek tiliga o'girilgan ayrim qonunlari-mizning tili tushunilishi qiyin bo'lishi bilan birga tarjima jarayonida hatto ayrim qo'pol xatoliklar ham yuz bermoqda. Fikrimizning dalili sifatida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Ma'muriy javobgarlik kodeksining 75-moddasi *Suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalariini buzish* deb nomlanadi.

Mantiqan *Suvlarning davlat hisobini yuritish* deyilishi noto'g'ridir. Chunki suvlar qanday qilib davlat hisobini yuritadi? Bu modda shu kodeksning rus tilidagi shaklidan noto'g'ri tarjima qilingan. Unda shunday deyiladi:

*Статья 75. Нарушение правил ведения государственного учета вод*

Ko'rindiki, bu modda rus tilida aniq va tushunarli ifodalangan. Shu moddani o'zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin edi:

#### 75-modda. Davlatning suv hisobini yuritish qoidalariini buzish

Tarjima jarayonida gaplar tarkibidagi har bir jumla va so'zning qaysi bo'lakka bog'lanib, uni to'ldirib, izohlab yoki aniqlab kelayotganiga alohida e'tibor qaratish zarur. Boshqa gap bo'lagiga bog'langan so'z va jumlanib, boshqa bir gap bo'lagiga bog'lash tarjimaning noto'g'ri bo'lismiga olib keladi. Jinoyat kodeksining 14-moddasidagi quyidagi gapga e'tibor bering:

*Ushbu kodeks bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.*

Bu matndagi jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi jumlasiga e'tibor bering. Bu jumlanib o'qib, bundan chiqdi jazo qo'llanmaydigan jinoyat ham bor ekan-da, degan savol tug'ilishi mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki, jinoyat bo'lganidan keyin albatta jazo qo'llanadi. Gap shundaki, bu modda rus tilidagi shaklidan noto'g'ri tarjima qilingan. E'tibor bering:

#### Статья 14. Понятие преступление

Преступлением признается виновное общественно опасное деяние (действие или бездействие), запрещенное настоящим Кодексом под угрозой применения наказания.

Ko'rinaridiki, под угрозой применения наказания jumlesi преступления so'zini emas, balki общественно опасное деяние atamasini izohlab kelyapti. O'zbek tilidagi shaklida esa под угрозой применения наказания jumlesi jinoyat so'zi oldida berilib, qo'pol xatolikka yo'l qo'yilgan.

Fuqarolik kodeksi 385-moddasining rus va o'zbek tillaridagi quyidagi variantlariga e'tibor bering:

В случае изменения или расторжения договора обязательства считаются измененными или прекращенными с момента заключения соглашения сторон об изменении или о расторжении договора, если иное не вытекает из соглашения или характера изменения договора, а при изменении или расторжении договора в судебном порядке – с момента вступления в законную силу решения суда об изменении или расторжении договора.

Shartnoma o'zgartirilgan yoki bekor qilingan taqdirda, agar kelishuvdan yoki shartnomani o'zgartirish xususiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, taraflar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, shartnoma sud tartibida o'zgartirilgan yoki bekor qilinganida esa suding shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab majburiyatlar o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

Agar bu gaplar so'zma-so'z bir-biriga taqqoslansa, rus tilidagi с момента заключения соглашения сторон об изменении или о расторжении договора jumlalari o'zbek tiliga taraflar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab deb tarjima qilinjanini ko'rish mumkin. Ya'n'i заключения

соглашения birikmasi o'zbek tiliga od-diygina qilib kelishish deb tarjima qilin-gan. Ma'lumki, заключения соглашения va kelishish bir xil ma'noni anglatmaydi. Заключения соглашения – biror masala bo'yicha tuzilgan va notarius yoki biror va-kolathi idora tomonidan tasdiqlangan maxsus yuridik hujjat ma'nosini beradi. Kelishish esa yuridik kuchga ega bo'lgan maxsus bitim tuzish ma'nosini bermasdan, balki shunchaki og'zaki kelishuv ma'nosini ifoda-laydi.

Tarjimon tomonidan arzimas deb his-oblangan bir so'zning tushirib qoldirilishi amaliyotda ko'pdan ko'p tushunmovchiliklar-ga olib keladi. Jumladan, amaliyotda yuqo-ridagi huquqiy normaning rus tilidagi shaklini qo'llayotgan fuqaro maxsus bitim tuzadi. Aynan shu moddaning o'zbek tilidagi shaklini qo'llayotgan fuqaro esa maxsus bitim tuzmasdan, shunchaki og'zaki kelishibgina qo'ya qoladi.

Huquqiy normalarni so'zma-so'z emas, balki mazmunan tarjima qilishga, bunda har bir so'zning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda to'g'ri ishlatischga alohida e'tibor bilan yondashish zarur. Jinoyat kodeksi-ning 23-moddasiga e'tibor bering:

Agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyoitsizlik orqasida boshqa ij-timoiy xavfli oqibatlar yuz bergen va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasdan so-dir etilgan jinoyat deb topiladi.

Bu moddadagi qonun qattiqroq javob-garlik bilan bog'lagan bo'lsa jumlesi shu qonunning rus tilidagi закон связывает повышенную ответственность birikmasi-dan so'zma-so'z tarjimadir. Aslida, shu jum-lani o'zbek tilida qonunda qattiqroq javobgarlik ko'zda utilgan bo'lsa deb ifodalash mum-kin edi.

#### Xulosalar

Qonunlar to'la mukammal bo'lishi uchun qonun loyihalari, avvalambor, davlat tilida tayyorlanishi, shu tilda muhokamadan o'ti-

shi, so'ngra lozim bo'lsa, boshqa tillarga tarjima qilinishi zarur. Chunki tarjima – bari-bir tarjima. Ming mohir mutarjimlar tarjima qilganda ham holat yanada sezilib qoladi. Shu bois qonun loyihasi, avvalambor, shu davlat tilida tayyorlanib, shu tilda keng xalq muhokamasidan o'tishi kerak. Ana shundagina qonunlar har jihatdan puxta va pishiq tayyorlanadi, amaliyotda ko'zlangan natijalar beradi.

Bizning nazarimizda, bunday muam-molarning paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

1. Bugungi kunda huquqshunos va tilshunos olimlarimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri – *yuridik terminlar tizimi ni tartibga solish (unifikatsiyalash va standartlashtirish)* va shu asosda mamlakatimizda barcha huquq-sudlov tizimi uchun yuridik terminlar tezaurusining yagona elektron platformasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shu bois hozirda Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan "Yuridik terminlar tezaurusi platformasi"ni ishlab chiqish bo'yicha maxsus loyiha amalgalashmoqda. Bunda terminologik tamoyillar va me'yorlarga qat'iy amal qilgan holda mukammal darajadagi tezaurus yaratishga harakat qilinmoqda.

2. Yuqoridagilarni e'tiborga olib hamda ilg'or xorijiy yuridik oliy o'quv yurtlarining tajribalaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda yuridik kadrlar tayyorlash tizimida bo'lajak huquqshunoslarning yuridik til, yuridik nutq, yuridik terminlar va ularni to'g'ri qo'llash qoidalari alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar ilm-fanida tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan Yurislingvistika fanini o'quv dasturiga kiritish zarur deb hisoblaymiz.

3. Yuridik ilmiy sohada huquqshunos va tilshunos olimlar hamkorligida Yurislingvistika, milliy yuridik til va yuridik nutq bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlariga ustuvor soha

sifatida qaralishi hamda aynan shu sohada ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

*Bu esa amaliyotda quyidagi masalalarning hal etilishiga xizmat qiladi:*

birinchidan, Oliy Majlis deputatlari, Senat a'zolarining qonun ijodkorligi faoliyatida qonun loyihalaring sifat jihatdan takomillashuviga xizmat qiladi. Mana shu jihatdan yuridik terminlar tezaurusi mamlakatimiz qonun ijodkorligi jarayoniga, qonun loyihalaring har tomonlama mu-kammal tuzilishiga yaqindan amaliy yordam beradi;

ikkinchidan, respublikamizda barcha huquqni muhofaza qilish organlari (adliya, ichki ishlar idoralari, davlat xavfsizlik xizmati, prokuratura, sud idoralari va boshqalar) xodimlari uchun yuridik terminlarning yagona elektron platformasi ishlab chiqiladi. Natijada shu sohada ishlataladigan barcha hujjalarning yuridik texnika talablari daramasida aniq, ravon va sifatli ishlab chiqilishiga erishiladi;

uchinchidan, mazkur yuridik tezaurusda barcha yuridik terminlarning ilmiy izohi ishlab chiqiladi. Bu esa mamlakatimizdagи barcha fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati oshishiga, ularning normativ-huquqiy va huquq-sudlov hujjalarni tez va oson tushunishiga xizmat qiladi, amaliyotda fuqarolarning o'z huquqlarini qo'llashi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi;

to'rtinchidan, bugungi kunda xorijiy tillardan o'zbek tiliga har kim o'z bilgancha xorijiy yuridik terminlarni o'zlashtirib, o'z faoliyatida o'rinci va o'rinsiz ravishda qo'llamoqda. Lekin ularni qaysi mezonlar asosida o'zlashtirish qoidalari ilmiy asosda ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur loyiada O'RFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mutaxassislari bilan kelishgan holda, xorijiy yuridik terminlarni o'zbek tiliga o'zlashtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi, aniq ilmiy taklif va tavsiyalar beriladi.

## REFERENCES

1. Kasymova M. Strukturno-sistemnyye osobennosti yuridicheskoy terminologii uzbekskogo jazyka [Structural and system features of legal terminology of the Uzbek language]. PhD thesis. Tashkent, 1986.
2. Boyko L.M. Zakonodatel'naya tekhnika (teoriya i praktika) [Legislative technique (theory and practice)]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 1984.
3. Karimova L.A. Pravovyye i nравственныye aspeky zakonov o yazyke [Legal and Moral Aspects of Language Laws]. PhD thesis. Tashkent, 1991.
4. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili [The language of the laws of the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 1995.
5. G'ulomova G. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti [Development of Uzbek legal terminology during the period of independence]. PhD thesis. Tashkent, 2006.
6. Tursunova O.F. O'zbek davlatchiligi tarixida qo'llanilgan huquqiy terminlar lisoniy tadqiqi [Linguistic study of legal terms used in the history of Uzbek statehood]. PhD thesis. Tashkent, 2007.
7. Berdiyorov SH.N. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik texnikasi (nazariya, metodologiya, amaliyot) [Legislative technique (theory, methodology, practice) in the conditions of a bicameral parliament]. PhD thesis. Tashkent, 2009.
8. Hayitov X. Qonun ijodkorligida yuridik lingvistikating o'rni va ahamiyati [The role and importance of legal linguistics in law-making]. PhD thesis. Tashkent, 2011.
9. Mirzayev R.I. O'zbekiston Respublikasida davlat tilining huquqiy maqomi [Legal status of the state language in the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 2012.
10. Mo'ydinov Q. O'zbek tili sud nutqi leksikasi [Uzbek Lecca Dictionary]. PhD thesis. Tashkent, 2019.
11. Ko'chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari [Scientific and theoretical problems of expressing legal norms in Uzbek]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2004.
12. Saidov A., Sarkisians G. Yuridik til va huquqshunos nutqi [Legal language and law speech]. Tashkent, Adolat Publ., 1994.
13. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik texnikasi (til, uslub, huquqiy atamashunoslik) [Legisoral techniques in the Republic of Uzbekistan (language, style, legal threaten)]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1996.
14. Saidov A., Saidova L., Ko'chimov Sh., Qosimova M. Qonun va til [Law and language]. Tashkent, Iqtisodiyot va huquq dunyosi Publ., 1997.
15. Davlat tili: muammolar va yechimlar [State language: problems and solutions]. Ed. A.Kh. Saidov. Tashkent, National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, 1999.
16. Saidov A., Ko'chimov Sh. Qonunchilik texnikasi asoslari [Legislative techniques]. Tashkent, Adolat Publ., 2001.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.i.

**BOSH MUHARRIR:**

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,  
dotsent

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,  
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Musahih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.